

20-Aprel, 2026-yil

ISLOM VA BAG‘RIKENGLIKNING BOSHQA DINLAR BILAN
MULOQOTDAGI ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xomidova Maftunaxon Akmaljon qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Telefon raqami: +998507044564

Ilmiy rahbar: Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasini mudiri,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Islom dinining bag‘rikenglik tamoyillari va boshqa din vakillari bilan muloqot masalalari tahlil qilinadi. Islom ta’limotida din erkinligi, o‘zaro hurmat va tinchlik g‘oyalari asosiy o‘rin tutishi Qur‘on oyatlari hamda tarixiy misollar asosida yoritilgan. Maqolada Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) faoliyati va ilk musulmon jamiyatidagi dinlararo munosabatlar misolida bag‘rikenglikning amaliy ko‘rinishlari ko‘rsatib berilgan. Bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida dinlararo muloqotning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Islom, bag‘rikenglik, dinlararo muloqot, vijdon erkinligi, tinchlik, adolat, hurmat, hamjihatlik, jamiyat, globallashuv.*

Annotation: *This article examines the principles of tolerance in Islam and issues related to interaction with representatives of other religions. It explains that the ideas of religious freedom, mutual respect, and peace occupy a central place in Islamic teachings, based on verses from the Qur‘an and historical examples. The article also demonstrates practical manifestations of tolerance through the activities of the Prophet Muhammad (peace be upon him) and interfaith relations in early Muslim society. In addition, it highlights the role of interreligious dialogue in ensuring social stability and development in the context of modern globalization.*

Keywords: *Islam, tolerance, interfaith dialogue, freedom of conscience, peace, justice, respect, solidarity, society, globalization.*

Bugungi kunda globallashuv jarayonining jadallashuvi natijasida turli din, madaniyat va e’tiqod vakillari o‘rtasidagi aloqalar yanada kengayib bormoqda. Bu esa jamiyatda o‘zaro tushunish, hurmat va bag‘rikenglik muhitini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Dinlararo muloqot masalasi zamonaviy jamiyat barqarorligi va tinchligini ta’minlashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Bag‘rikenglik bizning dunyoyimizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligi namoyon qilishning xilma-xil

20-Aprel, 2026-yil

usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi³⁵” degan fikri diniy bag‘rikenglikning asl mohiyatini yoritib beradi. Ushbu ta‘rif bag‘rikenglikni nafaqat diniy erkinlik, balki madaniy xilma-xillik, inson huquqlari va jamiyatdagi har bir shaxsning o‘ziga xosligini hurmat qilish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Islom dini azaldan insonparvarlik, adolat va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, boshqa din vakillari bilan o‘zaro munosabatlarda ham aynan shu qadriyatlarga tayanadi. Islom ta‘limotida din erkinligi, inson sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish muhim o‘rin egallaydi. Shu boisdan ham islomda boshqa din vakillari bilan muloqot qilishda zo‘ravonlik yoki majburlash emas, balki sabr, hikmat va go‘zal muomala ustuvor hisoblanadi. “Islom” so‘zining o‘zi ham “tinchlik” ma‘nosini bildiruvchi “salam” so‘zidan kelib chiqqan. Ushbu din insonlar o‘rtasida nafaqat ijtimoiy adolatni, balki turli e‘tiqod vakillari bilan ham tinch-totuv yashashni targ‘ib etadi.

Islom dinining asosiy manbai bo‘lgan Qur‘onda din erkinligi alohida ta‘kidlangan. “Dinda zo‘rlash yo‘q, zero, to‘g‘ri yo‘l yanglish yo‘ldan ajralib bo‘ldi. Bas, kim shaytonni (yohud butlarni) inkor etib, Allohga imon keltirsa, demak, u buzilmas, ishonchli halqani tutibdi. Alloh eshituvchi va bilguvchidir³⁶”(Baqara surasi, 256-oyat). Bu oyat har bir insonning e‘tiqod tanlashdagi erkinligini kafolatlaydi. Insonning iymoni majburlash orqali emas, balki ongli ravishda shakllanishi lozimligi ta‘kidlanadi. Bu esa islomning boshqa dinlarga nisbatan bag‘rikeng yondashuvini ochiq ifodalaydi.

Islom hech qachon boshqa din vakillarini majburan o‘z diniga kiritishni ma‘qullamaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayotlari ham bag‘rikenglikning yorqin namunasidir. U zot Madinada turli din vakillari bilan tinch-totuv yashash uchun kelishuvlar tuzganlar. Ushbu kelishuvlar orqali har bir din vakiliga o‘z e‘tiqodini erkin amalga oshirish huquqi berilgan. Rosululloh (s.a.v.) ahli kitobdan bo‘lgan qo‘shnilari bilan yaxshi munosabatda bo‘lar, hadya berib, ulardan ham turli hadyalar qabul qilardilar. Najron nasroniylariga masjidning bir tomonida ibodat qilishga ijozat berganlar. Bularning barchasi muloyimlik, odob va go‘zal axloq bilan bo‘lgan.

“Sahihi Buxoriy”da Jobir (r.a.)dan ushbu hadis rivoyat qilinadi: “Bir kuni oldimizdan bir janoza o‘tdi. Shunda Nabiy (s.a.v.) bu janoza uchun o‘rnilaridan turdilar va biz ham ul zotga ergashib o‘rnimizdan turdik. Biz: “Yo Rosululloh, bu yahudiyning janozasi!”, – dedik. Shunda ul zot (s.a.v.): “Qachon janozani ko‘rsangiz, o‘rningizdan turing!”, – dedilar³⁷”. Bu hadis orqali islomda g‘ayridinlardan vafot etganlariga ham yomon munosabat qilinmasligi o‘rganiladi.

Islom tarixida musulmonlar boshqa din vakillariga nisbatan bag‘rikenglik ko‘rsatgan ko‘plab misollar mavjud. “Amirul mu‘minin” nomini olgan Umar ibn Xattob (r.a.) Quddusni egallaganidan so‘ng, shahardagi nasroniy va yahudiy aholiga o‘z ibodatlarini

³⁵ <https://hidoya.uz/uz/news/719>

³⁶ Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2020. – B.42.

³⁷ <https://muslim.uz/uz/e/post/1294-diniy-bag-rikenglik-tinchlik-va-barqarorlik-garovi>

20-Aprel, 2026-yil

erkin amalga oshirish huquqini bergan. Bu esa islom davlatida diniy erkinlikning amalda ham ta’minlanganini ko’rsatadi.

Islom dini tinchlikni asosiy qadriyat sifatida targ‘ib qiladi. Yuqorida “islom” so‘zining “salam” so‘zidan kelib chiqqanini aytgan edik. Endi esa e’tiborimizni Qur’oni karimdagi salam – tinchlik so‘zi zikr qilingan sonlarga qaratamiz. Salam va islom so‘zlari Qur’oni karimda 50 ga yaqin o‘rinlarda zikr qilingan bo‘lib, uning aksi bo‘lgan harb – urush so‘zi bo‘lsa 4 marotaba kelgan. “Agar ular tinchlikka moyil bo‘lsalar, sen ham moyil bo‘l. Va Allohga tavakkul qil. Albatta, U eshituvchi va bilguvchi zotdir³⁸”. Mana shu oyatning o‘zi ham Islom dini tinchlikka qanchalik ahamiyat qaratganiga yorqin dalildir.

Bugungi globallashuv davrida turli din va madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston xalqi azaldan bag‘rikeng va mehmondo‘st xalq bo‘lib kelgan. Qadimdan zaminimizda yashagan millat va elatlar bir-biriga yelkadosh bo‘lib, og‘irini yengil qilishgan. Shuning uchun xursandchilikda ham, to‘yu marakada ko‘p millatli xalqimiz bir-birlari bilan hamkoru hamjihat bo‘lib yashashgan. Hozirgi kunga kelib, respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda.

Yurtimizda yashovchi turli din vakillariga diniy marosimlarini o‘tkazishlari va mamlakat hayotida faol ishtiroklari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Bu borada mamlakatimiz o‘ziga xos boy tajriba orttirganini ta’kidlash kerak. Buni butunjahon e’tirof etmoqda. O‘zbekistonga tashrif buyurgan BMT Inson huquqlari bo‘yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning quyidagi so‘zlari buning yorqin dalilidir: “Bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo‘lib turgan tahlikali kunlarda O‘zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlik turli davlatlar uchun o‘rnak bo‘lishga loyiqdir³⁹”. Bunday ahillikning asosiy sababi mamlakatimizda turli din vakillari yagona maqsad yo‘lida birlashib harakat qilishlaridir. Bu borada turli tadbirlar, anjumanlar o‘tkazilib, mushtarak vazifalar ado etib boriladi. Bir-birlarimizni bayramlar bilan qutlaymiz. Bu mamlakatimizda qaror topgan tinchlik-osoyishtalik muhitida o‘z ifodasini topmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2020. – b.543.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 2-juz. – Toshkent: Hilol Nashr, 2008. – B.499.

³⁸ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 2-juz. – Toshkent: Hilol Nashr, 2008. – B.499.

³⁹ <https://www.muslim.uz/uz/e/post/13408-islomda-diniy-bag-rikenglik-asoslari?page=3&per-page=1>

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Aprel, 2026-yil

INTERNET SAYTLARI:

3. <https://muslim.uz>
4. <https://hidoya.uz>